

Koinot tizimlari va aloqa muhandisligi bo'yicha yangi o'quv dasturi



Toshkent shahridagi turin politexnika universitetida yer sun'iy yo'ldoshi bilan bog'liq tadqiqotlar loyihasiga start berildi

2019 yil 15 noyabrdan Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti (TTPU) Yevropaning Erasmus+ dasturi bo'yicha xalqaro va mahalliy bir nechta universitetlar bilan hamkorlikda "Koinot tizimlari va aloqa muhandisligi bo'yicha yangi o'quv dasturi" ("New study program in space systems and communications engineering" – SPACECOM) loyihasini boshladi.



Loyiha yuzasidan 20 noyabrda barcha hamkor universitet va tashkilotlar Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

(TATU) da uchrashdilar. Yevropadagi hamkorlardan Berlin texnika universiteti (Germaniya) va EXOLAUNCH (Germaniya) kompaniyasi qatnashdi. Uchrashuvda loyihaning asosiy vazifalari va muddatlari kelishib olindi.

Ushbu loyiha yuzasidan hamkorlar tomonidan 2020 yil 4 martda TATUda birinchi konferensiya o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.